

O'ZBEKİSTONDA INFLYATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISH VA İSTE'MOL NARXLARI INDEKSİNİNG DINAMİKASI

INFLATION MANAGEMENT AND CONSUMER PRICE INDEX DYNAMICS IN UZBEKISTAN

**1Rayimnazarov Saloxiddin
Davirbek o'g'li,
2Xamitillaryeva Jasmina
Jaxongir qizi**

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Moliya fakulteti dekan o'rinnbosari PhD, ²Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Moliya fakulteti "Xalqaro valyuta va kredit munosabatlari" yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada 2025-yil statistik ma'lumotlari asosida inflyatsiyani nazorat qilish mexanizmlari, narxlar indeksining dinamikasi hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari ilmiy metodlar asosida tahlil qilinadi. Tahlillar orqali inflyatsiya bosimini kamaytirish yo'llari va amaldagi siyosatning samaradorlik darajasi baholanadi. Shuningdek, narxlar o'zgarishining aholining real daromadlariga va iqtisodiy barqarorlikka ta'siri o'rganiladi.

Eng. - This article analyzes the mechanisms of inflation control, the dynamics of the price index, and their socio-economic consequences based on 2025 statistical data using scientific methods. The analysis evaluates the effectiveness of current policies and explores ways to reduce inflationary pressure. Additionally, the impact of price changes on the real incomes of the population and overall economic stability is examined.

Kalit so'zlar:
Keywords:

❖ inflyatsiya, inqiroz, narxlar indeksi, raqamli iqtisodiyot, pul-kredit siyosati.
❖ inflation, crisis, price index, digital economy, monetary policy.

Kirish.

Jahon iqtisodiyoti hamda mamlakatimiz iqtisodiyoti oxirgi yillarda sezilarli darajada o'zgarishlarga duch keldi. Dunyo bo'ylab savdo urushlari, pandemiya oqibatlari va narxlar darajasining o'zgarishi inflyatsiya jarayonlariga salbiy yoki ijobjiy ta'sir ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda inflyatsiya nazorati va narxlar indeksi tendensiyalari mamlakat iqtisodiyotining sog'lam rivojlanishining muhim ko'rsatkichi sifatida tahlil qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlagan "O'zbekiston – 2030" strategiyasining II bob 45-maqсадida pul-kredit, fiskal va tashqi savdo siyosatlarini

o'zaro muvofiqlashtirish hamda tovar va xizmatlar bozorida raqobat muhitini yaxshilashga qaratilgan tarkibiy islohotlarni davom ettirish orqali 2030-yilga borib yillik inflyatsiyani 5-6 foiz darajasida ta'minlash lozimligi qayd etilgan [1]. Ushbu maqsadga erishish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2020-2025-yillar oralig'ida O'zbekiston iqtisodiyoti strukturaviy islohotlar, raqamli transformatsiya va inflyatsiya nazoratini kuchaytirish yo'li bilan sezilarli barqarorlikka erishdi. Jahon miyosidagi pandemiya, geopolitik inqirozlar va global resurslar narxining o'zgarishi sharoitida mamlakatda inflyatsiya darajasi 2023-yildagi 8,5 foizdan 2025-yilda 6,2 foizga

pasaydi.

Bugungi kunda markaziy bank, Milliy statistika qo'mitasi va boshqa muassasalarining rasmiy ma'lumotlariga asoslanib, inflyatsiya nazoratining samaradorligi, narxlar indeksi dinamikasi va ularning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri batafsil o'rganilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Inflyatsiya va narxlar indeksining o'zgarishi mavzusida ko'plab mualliflar tomonidan ilmiy ishlar olib borilgan. Masalan, J.Keyns tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda inflyatsiya va pul-kredit siyosati o'rtasidagi bog'liqlikka asosiy e'tibor qaratilgan [2].

Bundan tashqari, A. Xudoyberdiyev va U. Shermatov tomonidan olib borilgan tadqiqotda inflyatsiya nazorati mexanizmlari, narxlar indeksining dinamik o'zgarishi va iqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan. Ularning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, inflatsiyaning pasayishi uchun moliyaviy siyosat va strukturaviy islohotlar hamkorlikda olib borilishi zarur [3].

Xalqaro tashkilotlarning, jumladan, Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) va OECDning hisobotlari ham inflyatsiya jarayonlarini turli ko'rsatkichlar va tahliliy metodlar orqali yoritib berishga xizmat qilgan. Bu hisobotlar orqali inflyatsiya nazoratining samaradorligi va kelajakdagi yo'nalishlari bo'yicha xalqaro tajriba bilan tanishish mumkin [4], [5].

IMF hisobotida O'zbekistonning pul-kredit siyosati samaradorligi va inflyatsiyaning 2025-yilda 5-7 foiz oralig'ida barqarorlashishi ta'kidlangan [6].

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda oziq-ovqat narxlari 2020-2025-yillarda yillik o'rtacha 9,2 foizga oshgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 4,8 foizga tushishi bashorat qilingan [7].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va

sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalilanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda inflyatsiya nazorati va narxlar indeksining o'zgarishi turli ichki va tashqi omillar bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rinnegallamoqda. O'zbekiston Respublikasi hukumatining bozor iqtisodiyotiga bosqichmabosqich o'tish, moliyaviy integratsiyani kuchaytirish bo'yicha olib borayotgan iqtisodiy islohotlari inflyatsiyani nazorat qilishda muhim rol o'ynagan. Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati esa narxlar indeksiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Ichki ishlab chiqarish hajmi, ayniqsa, qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlari narxlarining o'zgarishi inflyatsion bosimni shakllantiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Narxlar indeksining dinamikasi orqali iste'mol tovarlari narxining o'zgarishi kuzatilib, inflyatsiya darajasi aniqlanadi.

Tashqi omillar - jumladan, global iqtisodiy muhit, xalqaro moliya bozorlaridagi o'zgarishlar, xususan, energiya resurslari va import mahsulotlari narxining o'zgarishi, xalqaro savdo munosabatlari ham inflyatsiya bosimining kuchayishiga olib kelmoqda. Valyuta kursining o'zgarishi, ayniqsa, milliy valyutaning qadrsizlanishi narxlar darajasining o'sishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, barqaror valyuta siyosatini yuritish inflyatsiyani jilovlashda muhim ahamiyat kasb etadi.


Bundan tashqari, xalqaro moliyaviy institutlar - xususan, Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) va Jahon banki tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy yordam va kreditlar iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, investitsiya oqimini oshirish orqali inflyatsiyani nazorat qilishda ijobjiy rol o'ynamoqda.

Yangilangan prognozlarga ko'ra, 2025-yil yakunida umumiy inflyatsiya darajasi 7-8 foiz atrofida shakllanishi kutilmoqda. Garchi energiya resurslari narxining

erkinlashtirilishiga oid birlamchi ta'sirlar pasaygan bo'lsa-da, inflyatsion kutilmalar, yalpi talabning faolligi va taklif omillarining saqlanib qolayotgani tufayli inflyatsiya darajasi proqnoz qilinayotgan darajadan sekinroq pasayishi ehtimoli mayjud.

2024-yilda aholi va tadbirkorlik subyektlarining inflyatsion kutilmalarida

o'zgaruvchan tendensiyalar kuzatildi. Jumladan, IV chorakda iqtisodiy subyektlarning narxlar bo'yicha kutilmalarida o'sish qayd etildi. Xususan, 2024-yil dekabr oyida aholining inflyatsion kutilmalari 14,4 foizni, tadbirkorlar kutilmalari esa 13,9 foizni tashkil etdi (1-rasm).



1-rasm. 2024-yilda inflyatsion kutilmalar (foizda) [5]

2024-yilning so'nggi choragida iqtisodiyot subyektlarining kelgusida narxlar o'zgarishi bo'yicha kutilmalari shakllanishiga, asosan, yoqilg'i va energiya resurslari hamda

kommunal xizmatlar qimmatlashishi, almashuv kursi o'zgarishi hamda transport xarajatlari oshishi kabi omillar ta'sir ko'rsatgan (1-jadval).

1-jadval

2024-yil davomida aholi fikriga ko'ra narx o'zgarishlari sabablari (foizda)


Sabablari	Mar.	Apr.	May	Iyun	Iyul	Avg.	Sen.	Okt.	Noy.	Dek.
Yoqilg'i va energiya narxining qimmatlashishi	50	47	49	47	44	46	47	46	51	57
Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi	42	55	57	54	51	49	45	47	51	56
Valyuta kursining o'zgarishi	61	55	49	41	39	42	50	51	51	55
Transport xarajatlarining oshishi	29	28	28	28	26	26	28	26	30	35
Monopoliya va narxlarning sun'iy oshirilishi	35	29	30	28	28	27	29	28	31	33
Ish haqi va nafaqalarning oshishi	29	23	24	26	22	40	39	31	28	28
Asosiy oziq-ovqatlarning qimmatlashishi	26	25	22	21	20	23	25	24	26	26

O'zbekistonda 2020-yildan keyingi davrda foiz stavkalarining dinamikasi inflyatsiyani jilovlash va iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlash o'rtaida muvozanatni saqlashga qaratilmoqda. 2025-yil uchun

proqnoz qilinayotgan 10 foizli asosiy stavka hamda raqamli innovatsiyalarni joriy etish va tashqi savdoni diversifikasiya qilish yo'nalishidagi chora-tadbirlar iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, tashqi

inflyatsion bosimlarni kamaytirish va moliyaviy tizim samaradorligini oshirishga

xizmat qilishi kutilmoqda (2-rasm).



2-rasm. Markaziy bank foiz stavkasining o'zgarish dinamikasi (foizda) [5]

2020–2025-yillar oralig'ida O'zbekistonda iste'mol narxlari indeksi (INI) tashqi va ichki iqtisodiy omillar ta'sirida sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Umumiy INI 2020-yil boshida 111,1 foizdan boshlangan bo'lib, 2022-yilgacha o'sish tendensiyasini saqlab, 112,3 foizga yetdi. Bu davrda COVID-19 pandemiyasi, global inflyatsiya jarayonlari va Rossiya-Ukraina urushining salbiy ta'siri

tufayli energiya resurslari hamda oziq-ovqat mahsulotlari narxlarida keskin oshish kuzatildi.

2023-yildan boshlab hukumat tomonidan inflyatsiyani jilovlashga qaratilgan chora-tadbirlar natija bera boshladи. Jumladan, 2023-yilda umumiy INI 110,5 foizgacha pasaydi, 2025-yil uchun esa bu ko'rsatkich 108,5–110,0 foiz oralig'ida prognoz qilinmoqda.

2-jadval

2020–2025-yillardagi narx indekslari yillik o'zgarishi (fozida)

Yil	Umumiy INI	Oziq-ovqat	Transport	Kommunal xizmatlar
2020	111,1%	113,5%	108,2%	115,0%
2021	109,8%	110,3%	107,5%	125,0%
2022	112,3%	115,7%	110,1%	132,4%
2023	110,5%	109,8%	108,9%	128,0%
2024	109,9%	102,6%	106,0%	127,0%
2025	108,5–110,0%	101,5–103,0%	105,0–107,0%	125,0–130,0%

Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha INI 2020–2022-yillarda eng yuqori darajada qayd etildi – 113,5 foizdan 115,7 foizgacha. Bu asosan mahsulot yetishmovchiligi, logistika zanjirlaridagi uzilishlar hamda mahalliy ishlab chiqarishning past samaradorligi bilan izohlanadi. 2024–2025-yillarda esa qishloq xo'jaligiga davlat subsidiyalari, importning diversifikatsiyasi va agrotexnologiyalarning

joriy etilishi natijasida oziq-ovqat inflyatsiyasi 101,5–103,0 foiz darajasigacha pasaytirildi.

Transport xizmatlari narxlari nisbatan barqaror bo'lib, yillik o'sish 105–110 foiz atrofida saqlanib kelmoqda. Bunga yoqilg'i narxlarining davlat tomonidan tartibga solinishi, jamoat transportiga qo'shimcha investitsiyalar kiritilishi hamda yo'l infratuzilmasining modernizatsiya qilinishi

sabab bo'lgan. Masalan, 2022-yilda transport bo'yicha INI 110,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil uchun prognoz 105,0-107,0 foiz oralig'ida belgilangan.

Kommunal xizmatlar (elektr, gaz, suv) narxlari esa 2020-2022-yillarda eng keskin o'sishni ko'rsatdi — 115,0 foizdan 132,4 foizgacha. Bu energiya tariflarining xalqaro narxlarga moslashtirilishi hamda importga qaramlik darajasi bilan bog'liq bo'ldi. 2024-yilda bu yo'nalishda INI 127,0 foizni tashkil etdi, 2025-yil uchun esa 125-130 foiz oralig'ida prognoz qilinmoqda. Hukumat quyosh va shamol elektr stansiyalarini rivojlantirish orqali ushbu sohada inflyatsiyani barqarorlashtirishga intilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Markaziy bank va boshqa davlat moliyaviy institutlari foiz stavkalarini tartibga solishda yanada egiluvchan va tezkor javob qaytaruvchi mexanizmlarni ishlab chiqishi lozim. Monetar siyosatning moslashuvchanligi inflyatsion bosimlarni yumshatishda va makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shuningdek, raqamli transformatsiyani jadallashtirish, elektron to'lov tizimlarini rivojlantirish va sun'iy intellekt asosida monitoring tizimlarini kuchaytirish orqali operatsion xarajatlarni qisqartirish va ma'lumotlarga asoslangan siyosiy qarorlar

qabul qilish imkoniyati kengayadi. Raqamli texnologiyalar inflyatsiyani nazorat qilishda innovatsion vosita sifatida faol qo'llanishi kerak.

Ichki ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, importga qaramlikni bosqichmabosqich kamaytirish va milliy iqtisodiy tizimni modernizatsiya qilish orqali narxlar indeksining barqarorligini ta'minlash mumkin. Bu esa nafaqat ichki iqtisodiy stabillikni mustahkamlaydi, balki tashqi iqtisodiy shoklarga nisbatan iqtisodiyotning bardoshliligini oshiradi. Shu bilan birga, 2027-yilgacha don mahsulotlari ishlab chiqarishini kamida 25 foizga oshirish agroinflatsiyani jilovlashda muhim vosita bo'lishi mumkin.

Xalqaro tashkilotlar — xususan, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF), Jahon banki va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) bilan hamkorlikni kuchaytirish O'zbekistonning inflyatsiyani nazorat qilish tizimini jahon standartlariga yaqinlashtirish imkonini beradi. Bu yo'nalishda xalqaro tajriba va statistik ma'lumotlardan oqilona foydalanish alohida ahamiyatga ega.

Milliy statistika qo'mitasi va boshqa monitoring institutlari tomonidan yaratilgan statistik tizimlar asosida inflyatsiya jarayonlarini doimiy ravishda tahlil qilish, prognozlarni yangilab borish va zamonaviy iqtisodiy siyosat choralarini ishlab chiqish istiqbolli yondashuv hisoblanadi.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023-yildagi PF-158-son <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Keynes, J.M. (1936). "Umumiyyatni nazariya: Bandlik, foiz va pul nazorati".
3. Xudoyberdiyev, A. & Shermatov, U. (2019). Inflyatsiya nazorati va iqtisodiy islohotlar.
4. <https://imf.org> - Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF - International Monetary Fund) rasmiy veb-sayti.
5. <https://worldbank.org> - Jahon banki (World Bank) rasmiy veb-sayti.
6. <https://cbu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sahifasi
7. <https://oe.cd> - Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD – Organisation for Economic Co-operation and Development) ning rasmiy veb-sayti
8. <https://www.imv.uz> - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.